


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
bakalavriat ta'lim yo'naliшining**

MALAKA TALABLARI

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «7» 08 dagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

1. 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1. 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:	4
1.2. 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2. 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari	5
1.2.3. 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.	5
2. 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	8
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.4. Kvalifikatsiya	10
Bibliografik ma’lumotlar.....	11
Kelishuv varag‘i	12

1. 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasvifi

60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilar talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrular tayyorlash o‘quv reja va fan dasturlarining o‘zlashtirilishini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha pedagogika sohasida kadr tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- 60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o‘quv reja va fan dasturlarini sifatlari ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul oliy ta’lim muassasalarining professor - o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi talabalari;
- o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari);
- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;
- oliy ta’lim muassasasini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilar va ish beruvchi tashkilotlar.

1.2. 60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

- umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o‘rta ta’limda geografiya, iqtisodiy bilim asoslari hamda tadbirkorlik asoslari fanlari o‘qituvchilari maqomida pedagogik faoliyat olib borish;
- o‘rta maxsus va professional ta’limda geografiya, iqtisodiy bilim asoslari

hamda tadbirkorlik asoslari fanlari o'qituvchilari sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

- O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

umumi o'rta ta'lism maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lism muassasasini boshqarish;

- umumi o'rta ta'lism maktabi, professional ta'lism muassasalari, oliy ta'lism muassasalarida laborant, kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lism yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- umumi o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lism muassasalarida;

- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi idoralarda;

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

- tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, geografiya ta'limi, iqtisodiyot sohalaridagi muammolar va ularning yechimlari sohalarida;

- davlat boshqaruv organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limg davlat va nodavlat muassasalarida;

60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lism yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari o'qishni tamomlagandan so'ng, umumi o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lism muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lism muassasalarida geografiya, iqtisodiy bilim asoslari hamda tadbirkorlik asoslari fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, geografiya muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda, iqtisodiyot tarmoqlarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lism yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *tadbirkorlik.*

1.2.4. 60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lism yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lism yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi

quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

- **o'quv jarayonini rejalashtirish:** DTS va O'D laringning maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, o'quvchilarning extiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

- **ta'lif samaradorligini ta'minlash:** dars maqsadlariga ko'ra o'quvchilar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lif jarayonida AKTdan unumli foydalanish, o'quvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lif berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, o'quvchilarning ta'lifiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'quvchilarning jamoaviy va loyixaviy ishlarini tashkil etish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, o'quvchilarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, o'quvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish;

- **o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish:** ta'lif natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lif natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lif natijalarini taxlil qilish, dars rejasini va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va tahlil qilish.

- **tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish:** tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lif muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muxitni yarata olish, o'quvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish

- **xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lif muhitini yaratish va ta'minlash:** O'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, o'quvchilarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratса, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, o'quvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishslashga yordam bera olish;

- **o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish:** muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtiroy etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarda qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar

o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

- hamkasblar va ta'lif oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish: o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lif jarayoniga maktab hayotiga jalg qilish, o'quvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) o'quvchilarni rivojlanishi va ta'lif muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalg etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qilish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- Geografiya, iqtisodiyot sohalarining ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lif yo'nalishlaridagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

- Geografiya va iqtisodiyot sohalariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ta'lif yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

- o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

- mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

- milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

- pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lif jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish.

Tadbirkorlik faoliyatida:

- ta'limda yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. 60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va ob'ektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;
- ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishslash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik;
- axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishslash metod, usul va vositalaridan foydalananish va mediasavodxonlik; global axborot tarmoqlari bilan ishslash ko'nikmalariga egalik.
- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;
- gigiena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatatlilik.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;
- ta'lim jarayoni sub'ektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;
- kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg'unligini, uzviylik va uzuksizligini ta'minlash;
- tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirganlik;
- geografiya, iqtisodiy bilim asoslari darslarida hamda o'quv dala amaliyotida texnika xavfsizligini ta'minlash;
- inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilar bilan ishslash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo'lishi;
- ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobilistikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatatlilik.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tashi hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarini ta‘minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘srimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, qo‘srimcha kvalifikatsiya olishga xizmat qiladigan, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo’llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Kunduzgi ta’lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 3-8 semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda xafstaning 4 kunida nazariy va amaliy ta’lim, 2 kunida amaliyot o‘tkaziladi.

2.3.1. 60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha o‘quv yuklamalari:

O‘quv fanlari bloklari va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Kunduzgi ta’lim shaklida ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4320	144
Tanlov fanlari	1800	60
Malakaviy amaliyot	1080	36
jami	7200	240

2.3.2. 60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavriat ta'lif yo'nalishi bo'yicha ta'lif dasturining tuzilishi:

Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (soatda)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	Semestri
	Majburiy blok	4320	144	
PSY110	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
O'EYT104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
MSVAX105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	2
O'RT106	Amaliy o'zbek (rus) tili.	180	6	1
FALMAD104	Falsafa	120	4	2
UYEBM111	Umumiy yer bilimi	330	11	1,2
TKAM106	Topografiya va kartografiya asoslari	180	6	1
GTGM110	Geologiya. Tuproqlar geografiyasi	300	10	1,2
PED208	Umumiy pedagogika	240	8	3,4
InkT.GP304	Inklyuziv ta'lif. Gospital pedagogika	120	4	4
DIN204	Dinshunoslik	120	4	3
TGM212	Tabiiy geografiya I	270	9	3,4
ETMQM208	Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish	240	8	3,4
AGDAM204	Aholi geografiyasi va demografiya asoslari	120	4	3
SHQGT204	Sanoat va qishloq xo'jalik geografiyasi	120	4	4
TG1M308	Tabiiy geografiya II	300	10	5,6
IIGM312	Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya I	300	10	5,6
GTM304	Geotoponimika	150	5	5
UTTVZY405	Uzluksiz ta'limdiagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar	150	5	7
GO'M407	Geografiya o'qitish metodikasi	270	9	7,8
IBAO'M406	Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi	120	4	7
IIGM404	Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya II	120	4	7
	Tanlov blok	1800	60	3-8
	Malakaviy amaliyot	1080	36	2-8
	JAMI	7200	240	

2.4. Kvalifikatsiya:

Pedagog. Geografiya, Iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchisi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 90

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat ob'ekti, pedagog, geografiya, iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchisi, umumiy yer bilimi, topografiya va kartografiya asoslari, geologiya, tupoqlar geografiyasi, tabiiy geografiya, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, aholi geografiyasi va demografiya asoslari, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, geotononomika, geografiya o'qitish metodikasi, iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyat, kasbiy faoliyat turi, amaliyat, amaliyat ob'ekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi

Kelishuv varag'i

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:
Toshkent davlat pedagogika universiteti




A.Kirgizbayev

M.O.

KELISHILGAN:



O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'lifi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lif markazi
direktori Sh.Sattorov



M.O.



Guliston davlat pedagogika instituti
rektori v.b. A.Qalandarov



M.O.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va
o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oly ta'lim muassasalarini va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

"—" 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va mакtab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi direktori Sh.Sattarov, Jizzax davlat pedagogika universiteti rektori prof. Sh.Sharipov, Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori prof. A.Kirgizbayev birgalikda TDPUDA ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60111000-Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari bakalavriat ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oly ta'lim muassasalarini faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son hamda "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-290-son Qarorlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-oktabrda hisobga olingan(hisob raqami 43) O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi "«Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar» O'zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 35-2021-son buyrug'i hamda oly ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjalarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Maktabgacha va mакtab ta'limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi direktori

Sh.Sattarov

Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori, professor

Sh.Sharipov

Toshkent davlat pedagogika universiteti
rektori, professor

A.Kirgizbayev

